

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/30.01.2021.I.16.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**ANDIJON MASHINASOZLIK INSTITUTI**

**QODIROV ZOHIDJON ERALIYEVICH**

**AXBOROTLAR NORAVSHANLIGI HOLATIDA FERMER  
XO‘JALIKLARI RIVOJLANISHINI IMITATSION MODELLASHTIRISH**

**08.00.06–Ekonometrika va statistika**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent - 2023**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati  
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
экономическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the Doctor of Philosophy (PhD) on  
economic sciences**

**Qodirov Zohidjon Eraliyevich**

Ахборотлар noravshanligi holatida fermer xo‘jaliklari rivojlanishini imitatsion  
modellashirish.....3

**Кадыров Захиджон Эралиевич**

Имитационное моделирование развитие фермерских хозяйств в условиях  
нечёткости информации.....29

**Kodirov Zokhidjon Eralievich**

Imitation modeling of farm development in the face of information ambiguity....57

**E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati**

Список опубликованных работ

List of published works.....61

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/30.01.2021.I.16.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**ANDIJON MASHINASOZLIK INSTITUTI**

**QODIROV ZOHIDJON ERALIYEVICH**

**AXBOROTLAR NORAUVSHANLIGI HOLATIDA FERMER  
XO‘JALIKLARI RIVOJLANISHINI IMITATSION MODELLASHTIRISH**

**08.00.06–Ekonometrika va statistika**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent - 2023**

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.2.PhD/Iqt1674 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Andijon mashinasozlik institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning web-sahifasida ([www.tdiu.uz](http://www.tdiu.uz)) va "ZiyoNet" Axborot ta'lim portalida ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Berkinov Bazarbay**

Xalqaro axborotlashtirish akademiyasi akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**G'ulomov Saidaxror Saidaxmedovich**

O'zRFA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Abdullayev Ilyos Sultonovich**

iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Yetakchi tashkilot:**

**Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektni rivojlantirish ilmiy-tadqiqot instituti**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.01.2021.I.16.03 raqamli ilmiy kengashning 2023-yil "\_\_\_\_" \_\_\_\_\_ soat \_\_\_\_ dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100003, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49. Tel: (99871) 239-28-72, faks: (99871) 239-41-23, e-mail:tdiu@tdiu.uz)

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_\_-raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100003, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49. Tel: (99871) 239-28-72)

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil "\_\_\_\_" \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi.  
(2023-yil "\_\_\_\_" \_\_\_\_\_ dagi \_\_\_\_-raqamli reyestr bayonnomasi).

**S.K. Xudoyqulov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, i.f.d., professor

**B.D. Xajiyev**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, i.f.n., dosent

**N.M. Maxmudov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, i.f.d., professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati.** Jahonda tabiiy va sog'lom oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talabning keskin o'sishi sharoitida qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini tashkil etish va boshqarishda ilmiy yondashuvlardan kengroq foydalanish, xususan, fermer xo'jaliklarining rivojlanishini imitatsion modellashtirish va prognozlashtirishga katta e'tibor qaratilmoqda. "Xorijiy davlatlarda kichik, o'rta va yirik toifalarga ajratilgan fermer xo'jaliklari faoliyatini boshqarishda qo'llanilgan axborotlar noravshanligini qisqartiruvchi raqamli hamda sun'iy intellekt texnologiyalari ekinlar hosildorligini prognoz qilishda moliyaviy-iqtisodiy xavflarni, tabiiy va ob-havo hodisalarini baholashda eng aniq va samarali natijalar bermoqda"<sup>1</sup>. Ayniqsa axborotlar noravshanligi holatida fermer xo'jaliklari rivojlanishini imitatsion modellashtirishning ahamiyati yuqori hisoblanadi.

Jahonda globallashuv va xalqaro raqobatning kuchayib borishi sharoitida qishloq xo'jaligi tarmog'i, jumladan, fermer xo'jaliklarini rivojlantirish masalalariga oid ko'plab ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Fermer xo'jaliklari faoliyatiga istiqbolli sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish, texnik va ozuqa ekinlari yetishtiruvchilarni axborot hamda sun'iy intellekt dasturlari orqali qo'llab-quvvatlash, qishloq xo'jalik ekinlarini kompyuter vositasida tanib olishga asoslangan ma'lumotlarni tahlil qilish va ishlov berish, o'simliklarni fototiplash va kompyuter orqali tasvirlash, begona o'tlarni mexanik ta'sir yoki kimyoviy reagentlar yordamida yo'q qilishda robot texnologiyalarini qo'llash, fermer xo'jaliklari rivojlanishini imitatsion modellashtirish va prognozlashtirish kabilar mazkur ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlaridan hisoblanadi.

Yangi O'zbekiston taraqqiyotida xususiy mulkchilikka asoslangan fermer xo'jaliklari faoliyatining keng yo'lga qo'yish va takomillashtirish asosida qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini rivojlantirishga ahamiyatli e'tibor qaratilmoqda. Shu bilan bir vaqtda Yangi O'zbekiston strategiyasida iqtisodiyotni barqaror rivojlanishini ta'minlashning ustuvor vazifalari belgilangan. "Bu fermer xo'jaliklarini mamlakat iqtisodiyoti yuksalishiga qo'shayotgan hissasini yanada oshirish yetishtiriladigan oziq-ovqat mahsulotlari aholi ehtiyojini qondirishi va respublika agrosanoati tarmoqlarining ichki va tashqi bozor talablariga javob berishini ta'minlashi zarur"<sup>2</sup>. Buning uchun fermer xo'jaliklarida ishlab chiqariladigan mahsulotlarning raqobatdoshligini ta'minlash, ularning jahon bozorida eksport salohiyatini yuqoriga ko'tarishni talab etadi. Ushbu maqsadga erishish uchun mehnat, moddiy va moliyaviy manbalardan samarali foydalangan holda ishlab chiqarishning optimal (maqbul) tarkibini va istiqbolini prognoz qilish modellar tizimini asoslash zarur. Bunday masalalarni bir-biriga bog'langan va muvofiqlashgan holda hal etish uchun zamonaviy matematik usullar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, raqamli iqtisodiyot va sun'iy intellekt

---

<sup>1</sup> Бостром Н. Искусственный интеллект. Этапы, угрозы, стратегии. – М.: Манн, Иванов и Фербер. 2016. - 96 с.; Люгер Д.Ф. Искусственный интеллект. Стратегия и методы решения сложных проблем. – М.: Вильямс. 2005. - 864 с.

<sup>2</sup> Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – T.: "O'zbekiston" nashriyoti, 2021.- 464 bet.

mexanizmlaridan foydalanish talab etiladi. Uning asosida fermer xo‘jaliklari faoliyati bilan bog‘liq ravshan va noravshan muhitdan axborotlarni yig‘ish, saqlash, qayta ishlash va uzatish bazasini yaratish asosida ko‘p variantli boshqaruv qarorlarini asoslashga imkoniyat yaratuvchi imitatsion modellar tizimini ishlab chiqish, ularni amaliyotga joriy etish Yangi O‘zbekiston strategiyasini amalga oshirishning hozirgi bosqichdagi o‘ta dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF–60-son “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2019-yil 23-oktyabrdagi PF–5853-son “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020–2030-yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2020-yil 29-oktyabrdagi PF–6097-son “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmonlari va boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma‘naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Fermer xo‘jaliklari faoliyatini tashkil etish va boshqarishning nazariy asoslari ko‘plab xorijiy va mamlakatimizning agrar soha iqtisodchi olimlari tomonidan tadqiq etilgan. Xorijiy mamlakat olimlaridan A.V.Chayanov, M.Bakket, I.Glebov va boshqa olimlar<sup>3</sup> ilmiy tadqiqot ishlarida kichik va yirik fermer xo‘jaliklarida ishlab chiqarish va mehnatni samarali tashkil etish hamda boshqarish yo‘nalishlari asoslangan.

O‘zbekiston agrar sektori iqtisodiyotini rivojlantirish, tarmoqda bozor islohotlarini chuqurlashtirish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish muammolariga O‘.P.Umurzoqov, S.S.G‘ulomov, A.M.Qodirov, T.Farmonov, N.S.Xushmatov, Q.A.Choriyev, F.T.Egamberdiyev va boshqa olimlar<sup>4</sup> tadqiqotlari bag‘ishlangan.

Mamlakatimizda qishloq xo‘jaligi, shuningdek, fermer xo‘jaliklarini boshqarish jarayonlarini matematik modellashtirish, axborot texnologiyalari, raqamli iqtisodiyot, sun‘iy intellekt mexanizmlarini amaliyotga qo‘llashning ilmiy-uslubiy va metodologik asoslari tadqiqotlariga V.Q.Qobulov, M.M.Komilov, S.S.G‘ulomov, T.Sh.Shodiyev, B.Berkinov, A.Abdugaffarov, B.Begalov,

---

<sup>3</sup> Чаянов А.В. Основные идеи и формы организации сельскохозяйственной кооперации. - М.: Наука, 1991. -37 с. Баккет М. Фермерское производство: прогноз развития фермы. - Лондон, 1994. - 456 с. Глебов И.П., Горбунов С.И., Батурин В.В. Влияние размеров отраслей на эффективность сельскохозяйственного производства // Экономика с.-х. и перерабатывающих предприятий. - Москва: 2003. - №10. - С.22-25.

<sup>4</sup> Umurzoqov O‘.P., Toshboyev A.J., Toshboyev A.A. Fermer xo‘jaligi iqtisodiyoti.- Toshkent: Iqtisodmoliya, 2008. - 275 b.; G‘ulomov S.S. Bozor iqtisodiyotiga o‘tish sharoitida agrar ishlab chiqarish majmuini rivojlantirish jarayonini modellashtirish.: I.f.n. dis. avtoref. - Toshkent: O‘zR Qishloq va suv xo‘jaligi vazirligi. BIITI, 2001.- 22 b. Farmonov T.X. O‘zbekiston Respublikasida fermer xo‘jaligini tashkil etish va rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari.: Iqt.f.dok. avtoref.- Toshkent: 2006.-50 b. Choriyev Q., Xushmatov N. Dehqon va fermer xo‘jaliklari faoliyatini rejalashtirish.-Toshkent: Sharq, 2002.- 29 b.

Sh.I.Mustafoqulov, B.Xodiyev, D.Muxamediyeva, B.Ro‘zmetov va boshqa ko‘plab olimlarning ilmiy ishlari bag‘ishlangan. Shu bilan bir vaqtda ko‘p tarmoqli fermer xo‘jaliklarini rivojlantirish, ular faoliyatini optimallashtirish hamda prognozlashtirishning ilmiy-uslubiy masalalari O.Xatamov, I.Abdullayev, T.Doschanov, N.O‘rmonov, A.Almurodov va boshqa tadqiqotchilar<sup>5</sup> tomonidan ishlab chiqilgan.

Shunga qaramasdan qishloq xo‘jaligi tarmoqlarida mahsulot ishlab chiqarishda inson boshqarishi mumkin bo‘lmagan ob-havoning ta‘sirini, shuningdek, bozor sharoitida talab va taklifni muvozanatlashda oldindan aniq bilish mumkin bo‘lmagan noravshan omillar mavjudligi hamda fermer xo‘jaliklarini rivojlanish strategiyasini aniqlashda matematik modellashtirishning yer, suv va boshqa resurslardan foydalanish samaradorligini oshirishga ko‘maklashuvchi sun‘iy intellekt usul va mexanizmlarini ishlab chiqish nisbatan past darajada.

Shu bilan bir qatorda qishloq xo‘jaligida bozor munosabatlarini chuqurlashuvi sharoitida fermer xo‘jaliklari rivojlanish istiqbolini prognoz qilish variantlarini aniqlashning uslubiy asoslari yetarli darajada tadqiq etilmagan va ishlab chiqilmagan. Shularni hisobga olganda fermer xo‘jaliklari istiqbolda yanada rivojlanishining optimal variantlarini axborotlar noravshanligi sharoitida tahlil va prognoz qilish dolzarb vazifalar qatoriga kiradi va bu ushbu ilmiy ishning maqsad va vazifalar doirasini belgilab berdi.

**Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya ishi Andijon mashinasozlik instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq ilmiy loyiha doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** O‘zbekistonda axborotlar noravshanligi sharoitida fermer xo‘jaliklari rivojlanishini imitatsion modellashtirishni takomillashtirish bo‘yicha ilmiy taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

#### **Tadqiqotning vazifalari:**

mamlakatimizda fermer xo‘jaliklari faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish va rivojlanishining iqtisodiy mexanizmlarini va xorijiy tajribalarini o‘rganish;

---

<sup>5</sup> Кабулов В.К., Абдуразаков В.А., Зияходжаев М.З. Применение экономико-математических методов в хлопководстве. Ташкент: Фан, 1974г. G‘ulomov S.S., Ayurov R.H., Abdullayev O.M., Boltaboyeva G.R. Raqamli iqtisodiyotda blokchaun texnologiyalari// Toshkent, 2019. Шодиев Т.Ш. Эконометрические модели развития сельского хозяйства. - Ташкент: Фан, 1986.-166 с. Беркинов Б.Б. Моделирование систем ведения сельского хозяйства.- Ташкент: Фан, 1990. – 127 с. Mustafoqulov Sh.I. O‘zbekistonda investision muhit jozibadorligini oshirishning ilmiy-uslubiy asoslarini takomillashtirish. Monografiya. -T.: Akademiya noshirlik markazi. 2017 y. Abdugaffarov A. Uzbekistan na puti cifrovizatsii: nachalo i nyneshnee polozheniye. NII razvitiya cifrovyykh tekhnologiy i iskusstvennogo intellekta. Materialy konferentsii, 2021 g. abduqaffarov\_abduhalil.ru. Бегалов Б.А., Жуковская И.Е. Информационно-коммуникационные технологии в эффективной организации статистической деятельности в условиях формирования инновационной экономики. «Фан» nashriyoti, 2013 y. Xodiyev B.Yu. O‘zbekiston iqtisodiyotida tadbirkorlik rivojlanishini ekonometrik modellashtirish. Iqt.f.dokt.disser. avtoreferati. –T:TDIU, 2000.-38 b. Мухамедиева Д.Т. Разработка моделей слабо формализуемых процессов и принятие решений на основе обработки нечеткой информации.: Автореф. дис. докт. тех. наук.- Ташкент: АН РУз НТЦ «Современные информационные технологии», 2006.-35 с. Xatamov O.Q. Qishloq xo‘jalik texnikasi lizingiga investitsiyalar jalb etish jarayonlarini modellashtirish. “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”.-T.: TerDU, 2007. -142 b.

fermer xo‘jaliklar faoliyatining iqtisodiy omillari samaradorligini tahlil qilish, mavjud muammolar va kamchiliklarni aniqlash;

fermer xo‘jaliklarni istiqbolda rivojlantirishning axborot texnologiyalari va sun‘iy intellekt vositalarini qo‘llashning uslubiy asoslarini va noravshan omillarini guruhlash;

axborotlar noravshanligi sharoitida fermer xo‘jaliklari rivojlanishini modellashtirishning uslubiy yondashuvini asoslash;

fermer xo‘jaliklari faoliyatini tahlil va prognoz qilishning imitatsion modellar tizimini ishlab chiqish;

axborotlar noravshanligi muhitida fermer xo‘jaligi ekinlari hosildorligi, daromadi va xarajatlarini optimallashtirish va prognoz qilish usulini asoslash;

kichik va yirik fermer xo‘jaliklarining asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlarini prognoz qilish va optimal rivojlanishi variantini ishlab chiqish.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida O‘zbekiston Respublikasi, shu jumladan, Andijon viloyati fermer xo‘jaliklari faoliyati tanlangan.

**Tadqiqotning predmetini** axborotlar noravshanligi holatida fermer xo‘jaliklari rivojlanishini imitatsion modellashtirish jarayonida vujudga keluvchi iqtisodiy munosabatlar tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqotda tizimli tahlil, iqtisodiy-matematik modellashtirish, iqtisodiy-statistik, korrelyatsion-regression tahlil, bir omilli va ko‘p omilli ekonometrik model, simpleks usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

fermer xo‘jaliklari rivojlanishiga ta‘sir etuvchi o‘zaro bog‘liq ravshan va noravshan omillar ta‘sirining ko‘p bosqichli imitatsion modellarini ishlab chiqish hamda xo‘jalik faoliyatiga tatbiq etish orqali iqtisodiy samaradorligini oshirish taklifi asoslangan;

aholi zich yashovchi hududlarda fermer xo‘jaliklari yer maydoni o‘lchami bo‘yicha daromad va xarajatlar o‘zgarishi yer, mehnat va kapital hajmi bilan o‘zaro bog‘liqligi ishlab chiqarish funksiyasidan foydalangan holda asoslangan;

Baliqchi tumanidagi axborotlar noravshanligi muhitida kichik va yirik fermer xo‘jaliklari yer maydonlari o‘lchamining [1:1,5:3:4] nisbatlarida ishlab chiqarish tarkibi hamda ularni istiqbolda rivojlanishining muqobil variantlari ishlab chiqilgan;

fermer xo‘jaliklari yer unumdorligi, suv, o‘g‘itlar va mehnat resurslarining paxta, don va boshqa ekinlar hosildorligiga ta‘siri samaradorligi qo‘shimcha mahsulot, olingan daromad, sarflangan xarajatlar darajalarini prognoz qilish orqali baholangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

respublikadagi fermer xo‘jaliklari rivojlanish omillari va ular faoliyati samaradorligi baholangan;

fermer xo‘jaliklari faoliyatiga ta‘sir etuvchi ravshan va noravshan omillar guruhlari shakllantirilgan;

imitatsiya tajribalari o‘tkazish va rivojlanishni tizimli tahlil qilishning uslubiy asoslari ishlab chiqilgan;

paxta hosildorligiga ta'sir etuvchi ravshan va noravshan omillarning ekonometrik modellari ishlab chiqilgan;

cheklangan yer, suv, o'g'it va boshqa ishlab chiqarish resurslaridan optimal foydalanish modellari taklif etilgan;

axborotlar noravshanligi muhitida kichik va yirik fermer xo'jaliklari yer va ishlab chiqarish tarkibining optimal variantlari asoslangan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Dissertatsiya ishi natijalarining ishonchliligi axborotlar rasmiy manbalardan olinganligi, tahlil va prognozlar statistik mezonlar yordamida baholanganligi, ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalarining ishonchliligi esa, respublika fermer xo'jaliklarini rivojlantirish bo'yicha qabul qilingan qarorlar va dasturlarga qay darajada muvofiqligi hamda tegishli xulosalarning mutasaddi tashkilotlar tomonidan amaliyotga tatbiq etilganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ishlab chiqilgan tavsiyalardan fermer xo'jaliklar faoliyatini optimal boshqarishda axborot-raqamli va sun'iy intellekt mexanizmlarini qo'llash va ularning rivojlanish strategiyasini ishlab chiqishda, shuningdek, mazkur muammoga bag'ishlangan ilmiy tadqiqot ishlari uchun ilmiy-uslubiy asos bo'lib xizmat qilishi orqali namoyon bo'ladi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan tavsiyalardan mamlakatning turli hududlarida axborotlar noravshanligi holatida fermer xo'jaliklari rivojlanishini imitatsion modellashtirish orqali qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini optimallashtirish hamda iqtisodiy samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan dasturlarni ishlab chiqish, shuningdek, qishloq xo'jaligi oliy o'quv yurtlari talabalari uchun darslik va o'quv qo'llanmalarni tayyorlashda foydalanish mumkinligi orqali namoyon bo'ladi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** O'zbekistonda axborotlar noravshanligi sharoitida fermer xo'jaliklari rivojlanishini imitatsion modellashtirishni takomillashtirish bo'yicha ishlab chiqilgan ilmiy taklif va tavsiyalar asosida:

fermer xo'jaliklari rivojlanishiga ta'sir etuvchi o'zaro bog'liq ravshan va noravshan omillar ta'sirining ko'p bosqichli imitatsion modellarini ishlab chiqish hamda xo'jalik faoliyatiga tatbiq etish orqali iqtisodiy samaradorligini oshirish taklifi O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi tomonidan "Hududlarda fermer xo'jaliklarini rivojlantirish dasturi"ni ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligining 2022-yil 16-sentyabrdagi 07/35-04/6624-sonli, O'zbekiston fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari kengashining 2022-yil 20-sentyabrdagi 01/03-2504/22-sonli ma'lumotnomalari). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida fermer xo'jaliklariga cheklangan ishlab chiqarish resurslaridan samarali foydalanish imkoniyati yaratilgan;

aholi zich yashovchi hududlarda fermer xo'jaliklari yer maydoni o'lchami bo'yicha daromad va xarajatlar o'zgarishi yer, mehnat va kapital hajmi bilan o'zaro bog'liqligi ishlab chiqarish funksiyasidan foydalangan holda asoslangan taklifi O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi tomonidan

“Hududlarda fermer xo‘jaliklarini rivojlantirish dasturi”ni ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligining 2022-yil 16-sentyabrdagi 07/35-04/6624-sonli, O‘zbekiston fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalari kengashining 2022-yil 20-sentyabrdagi 01/03-2504/22-sonli ma’lumotnomalari). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida mamlakatdagi fermer xo‘jaliklari yer maydonidan samarali foydalanish imkoniyati yaratilgan;

Baliqchi tumanidagi axborotlar noravshanligi muhitida kichik va yirik fermer xo‘jaliklari yer maydonlari o‘lchamining [1:1,5:3:4] nisbatlarida ishlab chiqarish tarkibi hamda ularning istiqbolda rivojlanishi bo‘yicha ishlab chiqilgan muqobil variantlari O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi, shuningdek, Andijon viloyati Baliqchi tumani fermer xo‘jaliklari faoliyatini boshqarishda joriy etilgan (O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligining 2022-yil 16-sentyabrdagi 07/35-04/6624-sonli, O‘zbekiston fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalari kengashining 2022-yil 20-sentyabrdagi 01/03-2504/22-sonli, Andijon viloyati Qishloq xo‘jaligi boshqarmasining 2022-yil 24-yanvardagi 01/05-55-sonli, Baliqchi tuman Qishloq xo‘jaligi bo‘limining 2021-yil 24-sentyabrdagi 01/136-sonli ma’lumotnomalari). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida Baliqchi tumani fermer xo‘jaliklarida kichik fermer xo‘jaliklarida optimal reja bo‘yicha bir gektaridan 1,0-1,3 sentner, yirik fermer xo‘jaligi bo‘yicha gektariga 2 sentner qo‘shimcha paxta hosili olish imkonini bergan;

fermer xo‘jaliklari yer unumdorligi, suv, o‘g‘itlar va mehnat resurslarining paxta, don va boshqa ekinlar hosildorligiga ta’siri samaradorligi qo‘shimcha mahsulot, olingan daromad, sarflangan xarajatlar darajalarining prognozi O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi, shuningdek, Andijon viloyati Baliqchi tumani fermer xo‘jaliklari faoliyatini boshqarishda joriy etilgan (O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligining 2022-yil 16-sentyabrdagi 07/35-04/6624-sonli, O‘zbekiston fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalari kengashining 2022-yil 20-sentyabrdagi 01/03-2504/22-sonli, Andijon viloyati Qishloq xo‘jaligi boshqarmasining 2022-yil 24-yanvardagi 01/05-55-sonli, Baliqchi tuman Qishloq xo‘jaligi bo‘limining 2021-yil 24-sentyabrdagi 01/136-sonli ma’lumotnomalari). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida Baliqchi tumani fermer xo‘jaliklarida bir gektar yer maydonidan olingan daromad 13,6 mln. so‘mdan 17,7 mln. so‘mga, o‘rtacha rentabellik darajasi 17,4 %ga teng bo‘lgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 6 ta xalqaro va 5 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e’lon qilinishi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha 17 ta ilmiy ish, shundan 4 tasi mahalliy jurnallarda, 2 tasi xalqaro jurnallarda maqola, 11 ta ma’ruza tezislari chop etilgan.

**Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi.** Dissertatsiya ishi kirish, uchta bob, 9 ta paragraf, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan tashkil topgan bo‘lib, uning hajmi 147 betni tashkil qiladi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqot maqsadi va vazifalari hamda obykti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yoʻnalishlariga mosligi koʻrsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati yoritib berilgan. Tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi boʻyicha maʼlumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Axborotlar noravshanligida fermer xoʻjaliklar rivojlanish jarayonlarini modellashtirishning ilmiy-uslubiy jihatlari”** deb nomlangan birinchi bobida fermer xoʻjaliklari faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish va ularni rivojlanish mexanizmlari, omillari va samaradorligi baholangan, sunʼiy intellekt modellarini yaratishning uslubiy jihatlari taklif etilgan.

Maʼlumki, Oʻzbekiston iqtisodiyotida qishloq xoʻjaligi salmoqli oʻrin tutadi. Mamlakatning yer fondi, mehnat resurslari, texnika va texnologik uskunalari, sugʻorish tizimi va boshqa milliy boyliklarning katta qismi qishloq xoʻjaligi ixtiyoriga berilgan. Shularni hisobga olib, respublika hukumati qishloq xoʻjaligi mahsulotlarini ishlab chiqaruvchilar faoliyatini bozor munosabatlariga moslashuvini tezlashtirish, ularning ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga qaratilgan keng qamrovli chora-tadbirlarni izchil amalga oshirmoqda.

Shu bilan birga mamlakatimiz qishloq xoʻjaligida bosqichma-bosqich amalga oshirilgan islohotlar natijasida xususiy mulkchilik ustuvor boʻlgan koʻp ukladli agrar ishlab chiqarish tizimi shakllandi. Unda fermer xoʻjaliklari tovar mahsulotlari va sanoat uchun xom-ashyo ishlab chiqarishda asosiy oʻrin tutadi. Hozirgi kunda turli ishlab chiqarish ixtisosligiga ega boʻlgan fermer xoʻjaliklari dehqonchilik, chorvachilik hamda boshqa sohalarda mahsulotlar yetishtirish orqali rivojlanib bormoqda.

Shu nuqtayi nazardan Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tomonidan “kambagʻallikni qisqartirish va qishloq aholisi daromadlarini koʻpaytirishda eng tez natija beradigan omil bu – qishloq xoʻjaligida hosildorlik va samaradorlikni keskin oshirish, har gektar yerdan olinadigan daromadni hozirgi oʻrtacha 2 ming dollardan kamida 5 ming dollargacha yetkazish ustuvor vazifa qilib qoʻyilishi”<sup>6</sup> fermer xoʻjaliklarini rivojlantirishning strategik yoʻnalishi hisoblanadi.

Buning uchun Prezidentimiz taʼkidlaganidek, qishloq xoʻjaligiga suvni tejaydigan texnologiyalarni, urugʻchilik, ilm-fan va innovatsiyalar sohasidagi yutuqlarni keng joriy etishimiz, avvalo, fermer va dehqonlarning yerdan manfaatdorligini oshirish kerak. Yuqorida bayon etilganlardan kelib chiqib, dissertatsiyada fermer xoʻjaliklari faoliyat koʻrsatishi va ularni rivojlantirish bilan oʻzaro bogʻliq qonunlarda belgilangan tashkiliy-iqtisodiy normalardan kelib

---


<sup>6</sup> Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Oliy Majlis va Oʻzbekiston xalqiga 29-dekabr 2020-yildagi Murojaatnomasi.

chiquvchi mexanizmlar ishlab chiqilgan. Ular shartli ravishda guruhlarga bo‘lingan.

Birinchi guruhni xo‘jalik yuritishning davlat tomonidan belgilab qo‘yilgan umumiy iqtisodiy mexanizmlar, ikkinchi guruhni fermer xo‘jaligini yuritish (faoliyat ko‘rsatish)ning ichki xo‘jalik mexanizmlari va uchinchi guruhni sotish, xarid qilish va yollash bo‘yicha xo‘jalik shartnomalarini tuzish va ijro etish bo‘yicha shartnomaviy munosabatlar mexanizmlari tashkil qiladi. Ushbu 3 ta guruh mexanizmlar birgalikda fermer xo‘jaligini boshqarish jarayonida amalga oshiriladi va fermer xo‘jaligining qisqa, o‘rta va uzoq muddatli prognozlashtirish va optimal rejalashtirishda o‘zining miqdoriy ifodasini topishi kerak. Davlat tomonidan belgilab qo‘yilgan ushbu tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlar va omillar fermer xo‘jaliklarini optimal faoliyat yuritishi uchun asos hisoblanadi.

Shu bilan birga, tadqiqotda fermer xo‘jaliklarini optimal rivojlantirish, ular ishlab chiqarish istiqbollari belgilashda respublika hukumati qarorlariga muvofiq qabul qilingan, hududiy o‘ziga xos xususiyatlar va fermerlar ishlab chiqarishining samaradorligiga ta’sir etuvchi omillar hisobga olingan.

Shundan kelib chiqqan holda, dissertatsiyada fermer xo‘jaliklarini rivojlanishini modellashtirishning konseptual qoidalari taklif etilgan. Bu fermer xo‘jaliklari yer maydonlarining optimal variantlarini tanlash, ularning o‘rta va uzoq muddatli istiqbolga mo‘ljallangan rivojlanishini alternativ variantlarini prognoz qilish bilan bog‘liq qator vazifalarni o‘z ichiga oladi (1-rasm).



**1-rasm. Fermer xo‘jaliklari rivojlanishini prognoz qilish omillarining axborot-mantiqiy bog‘liqligi chizmasi<sup>7</sup>**

1-rasmda ko‘rsatilganidek, fermer xo‘jaliklari rivojlanishining ushbu vazifalarini hal etishda asosiy cheklovchi shartlar sifatida, viloyat (tuman)ning yer-suv, mehnat resurslari, uning aholisini oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan ehtiyojlari, ekinlar hosildorligi, shuningdek, fermer xo‘jaliklarida yetishtiriladigan mahsulot va xomashyoni qayta ishlash, ularni mamlakatimiz ichida hamda tashqarisida sotilish hajmlari ishtirok etadi.

<sup>7</sup> Manba: muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Masalalarni hal etish natijalari esa qayta ishlovchi sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmini prognoz qilish, fermer xo‘jaliklariga mineral o‘g‘itlar, yoqilg‘i moylash mahsulotlari (YOMM) va boshqa ishlab chiqarish resurslarini yetkazib berishga ixtisoslashgan korxonalarni, shuningdek, bozor infratuzilmasi obyektlarini joylashtirishning optimal variantlarini tanlashga asos bo‘lib xizmat qiladi.

Bularning barchasi yuqoridagi vazifalarni hal etishga nisbatan tizimli yondashuv zarurligini ko‘rsatadi. Bu ularning matematik modellarini ishlab chiqishni talab qiladi, ushbu modellarning mazkur majmuaga kiruvchi boshqa vazifalar bilan mantiqiy va axborot orqali o‘zaro bog‘liqligi yuqorida keltirilgan chizmada ko‘rsatilgan.

Shundan kelib chiqqan holda, fermer xo‘jaliklarining yer, suv va mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligini yanada oshirish uchun matematik modellarini asoslash va ular rivojlanishini optimallashtirish zarurligini taqozo qiladi.

Shularni hisobga olib, aholi sonining o‘sishi va yer maydonlarining chegaralanganligi sharoitida fermer xo‘jaliklari ishlab chiqarayotgan mahsulotlarini ko‘paytirish, shuningdek, iste‘molchilarga yuqori sifatli oziq-ovqat yetkazib berish masalalarini hal etishda axborot-telekommunikatsiya, raqamli iqtisodiyot hamda sun‘iy intellekt texnologiyalariga asoslangan modellashtirish usullaridan keng foydalanish samarali yo‘l hisoblanadi.

O‘zbekiston ham globallashtirish jarayonlarining ajralmas bir qismi va ishtirokchisi sifatida iqtisodiyotni raqamlashtirish, axborot texnologiyalari va sun‘iy intellekt mexanizmlarini hayotga keng qo‘llashi iqtisodiy islohotlarning negizi bo‘lishi zarurligi belgilangan. Shularni hisobga olib, dissertatsiyada sun‘iy intellekt sohasida xorijiy mamlakatlarda hamda O‘zbekistonda amalga oshirilgan ilmiy ishlarning natijalari va ulardan foydalanish imkoniyatlari baholangan.

Sun‘iy intellekt (SI) – bu dasturiy muhitning shunday tizimiki, unda inson tafakkuri kompyuter jarayoniga imitatsiyalangan bo‘ladi. Intellekt – bu maqsadga erishishda zarur bo‘ladigan omillar va usullar to‘plamidir.

Sun‘iy intellekt texnologiyasi ishlab chiqarish va boshqarish jarayonlarini avtomatlashtirishga, shuningdek, katta hajmli tuzilmaga ega bo‘lmagan ma‘lumotlarda yashirin bog‘liqliklarni aniqlash imkonini beradi. Fermer xo‘jaligida sun‘iy intellektning istiqbolli texnologiyalari to‘g‘risidagi bilimlarni umumlashtirish va tizimlashtirish, modellashtirishdan iborat bo‘lib, ular aholini sifatli oziq-ovqat bilan ta‘minlash, shuningdek, ularni amaliyotga joriy etadigan fermerlarga tegishli raqobatdosh afzalliklarni tanlash imkonini beradi.

Hozirgi kunda SI texnologiyalarini fermer xo‘jaligida ishlatishga urinishlarning mavjud istiqbolli yo‘nalishlaridan biri - bu kompyuter orqali tanib olish asosida ma‘lumotlarni tahlil qilish va qayta ishlashdir. Bu fanda noravshan to‘plamlar va sun‘iy neyron tarmoqlari deb ataladigan ma‘lum bir matematik modellarni shakllantirishga asoslangan kompyuter uchun algoritmlarni ishlab chiqishdan iborat. Ushbu texnologiya o‘simliklar hosildorligini prognozlashni o‘z ichiga olgan bir qator o‘zaro bog‘liq kichik va yirik fermer xo‘jaliklari rivojlanishi bilan bog‘liq optimallik masalalarini muvaffaqiyatli hal qiladi. Bu esa to‘g‘ri va

o‘z vaqtida vujudga keladigan muammolarni hal etish va ularning paydo bo‘lishini oldini olishga imkon beradi.

Sun‘iy intellekt modellari negizida yaratilgan texnologiyalar juda katta miqdordagi sonli ma‘lumotlarni avtomatik tahlil qilishga asoslangan iqtisodiyotni raqamlashtirish bilan bog‘liq. Ta‘kidlash mumkinki, sun‘iy intellekt texnologiyalari, tarqoq va noaniq (noravshan) ko‘rinishga ega. Ma‘lumotlarni qayta ishlash orqali fermer xo‘jaligini iqtisodiy tizim sifatida samarali boshqarish jarayonlarini modellashtirish va olingan ma‘lumotlarni tezkor tahlil qilish kiradi.

Dissertatsiya natijalarining tahlili shuni ko‘rsatadiki, tadqiqotning asosiy g‘oyasi fermer xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish va qayta ishlash omillarini ularning texnologik ko‘rsatkichlar bilan bog‘lagan holda matematik modellashtirishdan iboratdir. Bunday yondashuv umuman olganda axborot va raqamli iqtisodiyot texnologiyalari orqali sun‘iy intellektning noravshan to‘plamlar sifatida agroiqtisodiy jarayonlarni yuritish tizimi qonunlari va uni tashkil qiluvchi unsurlar hamda quyi tizimlar axborotlari asosida imitatsion modellashtirish imkoniyatini beradi.

Dissertatsiyaning **“Fermer xo‘jaliklari rivojlanishini imitatsion modellashtirishning uslubiy yondashuvi”** deb nomlangan ikkinchi bobida fermer xo‘jaliklari faoliyatini rivojlantirish istiqbollari belgilashning uslubiy yondashuvi va imitatsion modellar tizimi ravshan va noravshan muhitda guruhlarga ajratilgan hamda samaradorligi baholangan.

Fermer xo‘jaligining rivojlanish mutanasoblighi, o‘shish darajasi va ishlab chiqarish samaradorligi, asosan, boshqarishning sifat darajasiga bog‘liq. Shuning uchun zamonaviy axborot texnologiyalari, ya‘ni tizimli modellashtirish va kompyuter texnikasi asosida ishlab chiqarish tarmoqlarini boshqarishni maqbullashtirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.


Shularni hisobga olib, tadqiqotning ushbu qismida fermer xo‘jaliklari faoliyati rivojlanishini modellashtirishda tizimli yondashuv tamoyillari, maqsadi va vazifalari, ularni amalga oshirish usullari va bosqichlari asoslab berilgan.

Bunda fermer xo‘jaliklari rivojlanishini tizimli yondashuv orqali alohida hal etiladigan masalalariga quyidagilarni kiritish taklif etilgan: yer, suv, o‘g‘it, mehnat va boshqa resurslarni hisobga olib, mahsulot ishlab chiqarish hajmi va hosildorlikni prognoz qilish; rivojlanishga ta‘sir qiluvchi iqtisodiy ko‘rsatkichlarni aniqlash va prognozlash; xo‘jalik daromadi va xarajatlarini prognoz qilish.

Shularni inobatga olgan holda, biz fermer xo‘jaligi ishlab chiqarish faoliyatining yakuniy natijalariga ta‘sir ko‘rsatuvchi asosiy omillarni tasniflab chiqdik va ularni ravshan va noravshan guruhlarga ajratishga harakat qildik (2-rasm).


Bozor sharoitida fermer xo‘jaliklarining yanada rivojlanishi bir necha o‘zaro chambarchas bog‘langan yaxshi shakllangan va shakllanmagan (noravshan) omillar to‘plamlariga bog‘liq. Birinchidan, bu fermer xo‘jaligining samaradorligi ko‘rsatkichlariga ta‘sir ko‘rsatuvchi uning yer uchastkasi o‘lchami. Ikkinchidan, ekinlar hosildorligi darajasiga, yerdan foydalanish o‘lchamiga hamda fermer tomonidan yetishtiriladigan mahsulotga nisbatan bozor talabiga bog‘liq bo‘lgan ishlab chiqarish hajmi va tarkibi. Shu munosabat bilan ishlab chiqarish

resurslarining cheklanganligi sharoitida fermer xo'jaligining daromadini (foydasini) ko'paytirish fermer xo'jaliklariga ajratilgan yer va boshqa resurslardan foydalanish samaradorligiga bog'liq hisoblanadi.



**2-rasm. Fermer xo'jaligi ishlab chiqarishining samaradorligiga ta'sir ko'rsatuvchi ravshan va noravshan omillar guruhlari<sup>8</sup>**

Fermer xo'jaliklarida yuqoridagi ravshan va noravshan guruhlarga bo'lingan omillardan foydalanib qabul qilinadigan qarorlarni tayyorlash va ularning oqibatlarini baholash tamoyillarini o'rganish natijalari shuni ko'rsatdiki, ishlab chiqarish tarkibini va uni rivojlantirish variantlarini kompyuter orqali tanib, qarorlar qabul qilish tartibi asoslangan. Buning uchun qarorlar qabul qilish jarayoniga kiruvchi funksional vazifalar oddiy tarzda hal etishdan farqli o'laroq mazkur jarayonga ekspertlar ham jalb etiladi. Bunda ulardan ushbu modelga kiritish uchun axborot olish mumkin. Ushbu maqsadda fermer xo'jaligini rivojlantirishning imitatsiya variantlarini kompyuter orqali tanish yuzasidan qarorlar qabul qilish tartibi ishlab chiqildi. Uning qismlarini 3-rasmida ko'rish mumkin.



**3-rasm. Fermer xo'jaliklarini rivojlantirish bo'yicha boshqaruv qarorlari qabul qilish bosqichlari<sup>9</sup>**

QQQSH – qaror qabul qiluvchi shaxs;

B – fermer xo'jaligini boshqarish jarayonida yuzaga keladigan vaziyatlar;

<sup>8</sup> Manba: Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

<sup>9</sup> Manba: Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

bozor talabi tavsiflarining axborot bazasi;  
kompyuter orqali noravshan axborotlarni tanish (tahlil, qayta ishlash va prognoz qilish);

rivojlanish strategiyasining biznes rejalarini tuzish;

qarorlarning optimal variantini tanlash;

qarorlar qabul qilish natijalarining ma'lumotlar bazasini yaratish.

Shulardan kelib chiqib, dissertatsiyada bozor munosabatlarini chuqurlashuvining hozirgi bosqichida fermer xo'jaliklari faoliyatini tizimli tahlil qilish va rivojlanishini prognoz qilishning imitatsion modellar tizimi ishlab chiqildi. Fermer xo'jaligi rivojlanishining bunday modellari ishlab chiqish resurslar ta'minotini hisobga olgan holda ular barqaror rivojlanishining muqobil strategiyasini tanlashga, imitatsiya tajribalarini o'tkazishga imkon beradi.

Bunda quyidagi ravshan va noravshan axborotlar to'plami guruhlarini ishtirok etadi:

Qishloq xo'jaligi mahsulotiga bo'lgan talab va taklifni prognozlash. Ushbu guruh axborotlari asosan bozor talablariga qarab shakllanadi, ravshan axborotlar to'plami hisoblanadi.

Talabni hisobga olgan holda qishloq xo'jaligi mahsulotlarining tarkibini va hajmini optimallashtirish. Bozor konyunkturasi va aholi iste'moli talabi asosida xo'jalik rivojlanishi prognoz qilinadi.

Yer kadastr ma'lumotlarini hisobga olgan holda qishloq xo'jaligi ekinlari asosiy turlarining hosildorligini prognoz qilish. Ushbu yondashuvda kadastr ma'lumotlari noravshan axborotlar guruhiga kiradi.

Qishloq xo'jaligining ishlab chiqarish resurslariga bo'lgan talabini aniqlash. Ushbu axborotlar noravshan to'plamlar guruhiga kiradi.

Prognoz natijalarni iqtisodiy baholash. Ushbu prognozlar asosida kichik va yirik yer maydoniga ega bo'lgan fermer xo'jaligi rivojlanish nuqtalari aniqlanadi va qaror qabul qilinadi.

Shularni inobatga olib, tadqiqotimizda quyidagi bloklardan tashkil topgan imitatsion modellar tizimi taklif etildi:

I. Fermer xo'jaligi rivojlanishining optimallik (maqbullik) modelini quyidagi ko'rinishda ifodalash mumkin.

Fermer xo'jaligi sof daromadining maksimumini

$$F = \sum_i p_i c_i x_i \rightarrow \max ,$$

quyidagi shartlarni qanoatlantirgan holda topish zarur:

-yerdan foydalanish balansini hisobga olish:

$$\sum_i x_i = b_1$$

suv, o'g'it, investitsiya, moddiy va mehnat resurslarini ishlatish mos ravishda quyidagi shartlar bajarilishi hisobga olinsin:

$$\sum_i a_{1i} x_i \leq b_2, \quad \sum_i a_{2i} x_i \leq b_3, \quad \sum_i a_{3i} x_i \leq b_4,$$

$$\sum_i a_{4i}x_i \leq b_5, \quad \sum_i a_{5i}x_i \leq b_6.$$

Bu yerda quyidagi belgilashlar qabul qilingan:

$x_i$  –  $i$  – turdagi texnologiya bo‘yicha ekin navini ekish maydoni (ga);

$p_i$  – 1 sentner  $i$  – ekin navi hosildan olinadigan sof daromad (ming so‘m);

$c_i$  –  $i$  – turdagi ekin navining hosildorligi (s/ga);

$b_1$  – umumiy ekin maydoni (ga);

$a_{1i}$  – sug‘orish normasi ( $m^3$ /ga);

$b_2$  – suv resurslari hajmi ( $m^3$ );

$a_{2i}$  – o‘g‘it solish normasi (t/ga);

$b_3$  – o‘g‘it resurslari (t);

$a_{3i}$  – 1 gektar uchun kiritiladigan investitsiya (ming so‘m);

$b_4$  – investitsiya hajmi (ming so‘m);

$a_{4i}$  – moddiy resurslar normasi (1 gektar uchun ming so‘m);

$b_5$  – moddiy resurslar hajmi (ming so‘m);

$a_{5i}$  – 1 gektar uchun sarf qilinadigan mehnat xarajati normasi (odam, soat);

$b_6$  – mehnat resursi hajmi (odam, soat).

Masalaning  $c_i$  va  $a_{1i}$  ko‘rsatkichlarini tahlil etadigan bo‘lsak, yuqorida ko‘rsatilganidek, ularning ko‘pi real jarayonning noravshan omillariga bog‘liq ekanligini ko‘ramiz. Masalan hosildorlik yerda u yoki bu to‘yimli moddaning mavjudligiga, yerga ishlov berish hamda o‘g‘it solish davri va texnologiyasiga hamda boshqa ko‘p omillarga bog‘liq.  $a_{1i}$  dan boshqa ko‘rsatkichlar haqida ham shunday fikrni aytish mumkin.

Modelni real holatga yaqinroq qilish uchun, modelga yuqorida aytilgan bog‘lanishlarni kiritish talab etiladi, bu esa masala shartlarini kengaytirib va qiyinlashtirib yuboradi. Boshqa tomondan esa bu model ko‘rsatkichlarining qat‘iy belgilangan qiymatlari haqiqatdan ancha uzoq bo‘lishi mumkin. Amalda bu ko‘rsatkichlarning qabul qilishi mumkin bo‘lgan qiymatlar to‘plamini olishi maqsadga muvofiq. U holda biz quyidagi masalani yechishga kelamiz:

Shunday  $x(x_1, x_2, \dots, x_n)$ , topish lozimki, quyidagi sof daromad eng katta qiymat olsun:

$$\sum_{j=1}^m p_j \bar{c}_j x_j \rightarrow \max$$

va quyidagi shartlar bajarilsin:

$$\sum_{j=1}^m x_j \bar{a}_{1j} \leq \bar{W}, \quad \sum_{j=1}^m x_j \leq X, \quad x_j \geq 0, j = 1, 2, \dots, m.$$

Bu yerda:  $\bar{c}_j$ , ( $j = 1, 2, \dots, m$ ) –  $j$  – navli ekin hosildorligining olishi mumkin bo‘lgan qiymatlar to‘plami;  $\bar{a}_{1j}$  – sug‘orish normasi olishi mumkin bo‘lgan

qiymatlar to'plami;  $\overline{W}$  – mavjud suv resurslarining olishi mumkin bo'lgan qiymatlar to'plami;  $X$  – umumiy yer maydoni.

Ko'rilayotgan masala vektorli optimallashtirish masalalari bo'lib, chiziqli dasturlash usuli asosida yechiladi.

II. Fermer xo'jaligi optimal rivojlanishi parametrli modelini quyidagi blok ko'rinishda yozish mumkin.

Ishlab chiqarish resurslari limitini hisobga olgan holda tannarxning minimumini:

$$z = t \sum_i s_i c_i x_i + (1 - t) \sum_i k_i c_i x_i \rightarrow \min,$$

quyidagi shartlarni qanoatlantirgan holda topish zarur: bunda 1-blokda ifodalangan model asosida biz quyidagi masalani yechishga kelamiz: shunday  $x(x_1, x_2, \dots, x_n)$  topilsinki, quyidagi funksiya eng kichik qiymat olsun:

$$z = (\bar{a}'_0 + t'\bar{b})x + \bar{e}t$$

va quyidagi shartlar bajarilsin:

$$(\bar{a} + \bar{c}t)x \subset K, \quad t \in E_s$$

Bu yerda:  $s_i$  – 1 sentner  $i$  – navli ekin hosilining tannarxi (ming so'm),  $k_i$  – 1 sentner  $i$  – navli ekin hosilini olish uchun qo'yilgan investitsiya,  $\bar{c}_j$ , ( $j = 1, \dots, m$ ) –  $j$  – navli ekin hosildorligining olishi mumkin bo'lgan qiymatlar to'plami;  $\bar{a}_{1j}$  – sug'orish normasi olishi mumkin bo'lgan qiymatlar to'plami;  $K = \{y: y \in R^n, y \leq a_0 + dt\}$  –  $R^n$  fazoning berilgan qavariq nimto'plami.

Ushbu masalada,  $b, c, d, e$  koeffitsiyentlar noravshan nimto'plamlar shaklida aks ettirilgan, ya'ni to'plamga tegishlilik koeffitsiyentlari.

Fermer xo'jaligi rivojlanishiga ta'sir qiluvchi yuqorida keltirilgan 1- va 2-model omillarini topish uchun, odatda statistik modellashtirish hamda korrelyatsiya koeffitsiyenti formulasidan foydalaniladi. U obyektning har bir omilga bog'liqlik darajasini aniqlaydi. Agar korrelyatsiya koeffitsiyenti qiymati birga yaqin bo'lsa, unda obyekt ma'lum bir darajada omilga bog'liq, agar nolga yaqin bo'lsa, unda ushbu omilning obyektga ta'sirini hisobga olmasa ham bo'ladi.

III. Fermer xo'jaligi rivojlanish omillarini prognozlash uchun regressiya funksiyalaridan foydalanish blokini taklif etdik. Vaqt omili funksiyalariga quyidagilar kiradi:

A. To'g'ri chiziq funksiyasi:

$$Y_i(t) = a_{i1} + b_{i1}t$$

B. Eksponensial funksiya:

$$Z_i(t) = e^{a_{i2} + b_{i2}t}$$

C. Logarifmik funksiya:

$$P_i(t) = \ln(a_{i3} + b_{i3}t)$$

D. Parabolik funksiya:

$$Q_i(t) = a_{i4}t^2 + b_{i4}t + c$$

E. Darajali funksiya:

$$S_i(t) = a_{i5} t^{b_{i5}}$$

yoki

$$\ln S_i(t) = \ln a_{i5} + b_{i5} \ln t.$$

F. Kobb-Duglas ishlab chiqarish funksiyasi:

$$y = B \cdot K^\alpha \cdot L^\beta$$

Yuqoridagi I, II, III blokka kirgan modellar orqali imitatsion jarayon amalga oshiriladi. Dissertatsiya ishida imitatsion eksperimentlar o'tkazish jarayoni va uning algoritmi keltirilgan. Tanlangan algoritm bo'yicha eksperiment o'tkazuvchi shaxs iqtisodiy boshqaruv variantini ham tanlaydi.

Ma'lumki, qishloq xo'jaligida ishlatiladigan yer, mehnat va boshqa resurslar samaradorligi ekinlar hosildorligida namoyon bo'ladi. Paxta hosildorligiga boshqariladigan va boshqarilmaydigan (noravshan) omillar ta'sir ko'rsatadi. Paxtachilikda boshqariladigan omillarga – yer haydashdan boshlab, toki hosilni yig'ib olgunga qadar amalga oshiriladigan agrotexnik tadbirlar guruhlari orqali shakllanadigan omillar kiradi. Ushbu guruhga kiruvchi omillar haqidagi axborotlar biznes – reja, xo'jalikning moliyaviy – iqtisodiy faoliyatiga doir hisobotlarda o'z ifodasini topadi. Ayni paytda boshqarilmaydigan omillar – tuproq tarkibidagi gumus miqdori (ballda o'lchanadi), issiqlik, yorug'lik, yog'ingarchilik darajasi haqidagi axborotlar yuqori noravshanlikka ega bo'lib, maxsus manbalardan ko'p yillik kuzatishlar natijasida yig'ilib boriladi. Masalan, tuproqdagi gumus miqdori. Axborotlar noravshanligining ana shu o'ziga xos xususiyatlari, to'liqligi va ravshanligi paxta hosildorligi modellarni ishlab chiqishda asosiy rol o'ynaydi. Alohida tuproq iqlim sharoiti hosildorlik modeliga kiritiladigan omillarni tanlash ham ana shu axborotlarning mavjudligiga asoslanadi.

Shularni hisobga olib, tadqiqotda Baliqchi tumani uchun paxta hosildorligining ( $Y$ ) ekonometrik modeliga quyidagi omillar kiritildi:  $x_1$  – yerning o'rtacha bahosi (ball boniteti);  $x_2$  – kiritilgan o'g'itlar (harakatdagi moddalar s/ga);  $x_3$  – mehnat sarfi (odam-kun/ga);  $x_4$  – ish haqi (ming so'm/ga).

Ushbu omillardan foydalanib quyidagi ko'p omilli regressiya modeli olindi:

$$Y = 17,7 + 0,18x_1 + 0,73x_2 - 0,035x_3 + 0,02x_4 \quad (1)$$

Modelning ko'plik korrelyatsiya koeffitsiyenti ( $R$ )  $-0,78$  ga teng. Yer bonitet balli ( $x_1$ ) 1 ballga oshsa, paxta hosili 0,18 sentnerga, ma'danli o'g'itlar ( $x_2$ ) miqdori 1 sentnerga ko'p ishlatilsa, paxta hosili 0,73 sentnerga o'sishi mumkin. Modelda qo'l mehnati sarfi ( $x_3$ ) oshishi paxta hosilini o'sishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi, aksincha ish haqi ( $x_4$ ) oshishi esa ijobiy ta'sirga ega. Umuman olganda, modelda barcha tanlab olingan omillar paxta hosildorligi bilan jips bog'langan.

Regressiya modeliga kiritilgan omillarining prognoz davriga qabul qilingan qiymatlarida yirik fermer xo'jaliklari bo'yicha paxta hosili bir gektardan 13,0 (1-var.) va 15,3 (2-var.) sentnerdan, o'rtacha fermer xo'jaliklarida 12,6 (1-var.) va 14,7 (2-var.) sentnerdan qo'shimcha olish mumkinligini ko'rsatadi. Ushbu ko'rsatkichlarda yirik fermer xo'jaliklarida o'rtacha bir gektardan 30,7 s (1-var.) va 2-variant bo'yicha 33,0 s paxta hosildorligini kutish mumkin. O'rtacha fermer xo'jaliklarida paxta hosildorligi prognoz variantlari bo'yicha gektariga yirik fermer xo'jaliklariga nisbatan 0,4 s (1-var) yoki 0,6 s (2-var.) past bo'lishi mumkin.

Baliqchi tumani bo'yicha yirik fermer xo'jaligida bir gektar paxta maydonidan olingan daromad 18,3 mln. so'mni (1-var.), 2-variant bo'yicha esa 19,9 mln. so'mni tashkil etadi. Bunda paxta ishlab chiqarishning o'rtacha rentabellik darajasi tuman bo'yicha 17,8 % bo'lishi mumkin.

### 1-jadval

#### Baliqchi tumanida paxta hosildorligini ekonometrik model ko'rsatkichlari asosida prognoz variantlari<sup>10</sup>

O'zgaruvchi omillar	O'lchov birligi	Korrelyatsiya koeffitsiyenti ( $a_i, i = 1,4$ )	O'zgaruvchi omillarning istiqbol uchun qabul qilingan qiymatlari			
			Yirik fermer xo'jaliklari		O'rta fermer xo'jaliklari	
			1-variant	2-variant	1-variant	2-variant
$x_1$	ball	0,18	50	60	50	58
$x_2$	mineral o'g'it s/ga	0,73	1,6	2,0	1,2	2,0
$x_3$	odam-kun/ga	-0,035	62,5	56,8	72,5	68,7
$x_4$	ming so'm/ga	0,02	1136,5	1136,5	1145,6	1145,6
$a_0$	s/ga	17,7	17,7	17,7	17,7	17,7
$Y$	s/ga	-	30,7	33,0	30,3	32,4

Tadqiqotda Andijon viloyati Baliqchi tumani fermer xo'jaliklari bo'yicha daromad va xarajatlar o'zgarishini yer, mehnat va kapital xarajatlari bilan o'zaro bog'liqligining Kobb-Duglas funksiyasiga asoslangan modellari ishlab chiqildi.

Modelda yer maydoni, mehnat resurslari va fermer xo'jaliklari xarajatlari o'zgaruvchi omillar sifatida ishtirok etgan. Modellarining har bir guruhi regression statistika hamda dispersion tahlil ko'rsatkichlari statistik baholash mezonlarini to'liq qanoatlantiradi.

Tadqiqotda 10-20 gektargacha bo'lgan yer maydonidagi 11 ta fermer xo'jaligi joylashgan. Ularning umumiy yer maydonini 128,1 ga bo'linganda, o'rtacha bitta fermer xo'jaligining yer maydoni 11,6 gektarga teng.

Ushbu axborotlar bazasida fermer xo'jaliklar daromadlariga ta'sir etuvchi omillar o'rganildi. Natijada quyidagi Kobb-Duglas modellari olindi:

$$Y_1 = 1,77 \cdot K^{0,46} \cdot L^{0,18} \quad (2)$$

bu yerda:  $Y_1$  – fermer xo'jaligi daromadi (mln. so'm);  $K$  – fermer xo'jaligining xarajatlari (mln. so'm);  $L$  – mehnat resurslari.

$$Y_2 = 1,17 + 0,55 \cdot K + 0,25 \cdot L - 0,04 \cdot X, \quad (3)$$

bu yerda:  $X$  – yer resurslari (ga).


$$Y_3 = 1,45 + 0,58 \cdot K + 0,13 \cdot L, \quad (4)$$

Yer maydoni 10 gektardan 20 gektargacha bo'lgan fermer xo'jaliklari bo'yicha olingan (2), (3), (4) modellar hammasi ham statistik baholash mezonlari

<sup>10</sup> Manba: paxta hosildorligini ko'p omilli modeli (1) asosida tuzilgan.

bo'yicha talablarga mos kelmaydi. Buni (3) va (4) modelda standart xatolar koeffitsiyenti yuqori (0,518; 0,487) ekanligi bilan izohlash mumkin. Faqat (2) model statistik baholash mezonini talablarini qanoatlantiradi. Shularni e'tiborga olganda (2) model ko'rsatkichlari ishonchli va undan 10-20 ga yer maydoni mavjud bo'lgan fermer xo'jaliklari daromadini prognoz qilishda foydalanish mumkin.

1-grafik<sup>11</sup>



